

NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA NOVELISTIK HIKOYATLAR HAQIDA

*Shodiya Otanazarova - Urganch davlat
universiteti, Filologiya fakulteti talabasi,
Alisher Navoiy nomidagi davlat
stipendiyasi sohibasi*

Annotatsiya. Maqolada Sharq adabiyoti misolida novella janrining xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Jumladan, Alisher Navoiyning “Beshlik” (“Xamsa”) dagi hikoyatlarning novelistik jihatlari tahlilini har tomonlama tahlil qilish G‘arbiy Yevropa qissasining boshida Sharq hikoyasi turgani haqidagi fikrni ilgari surishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: qissa, hikoya, o‘zaro ta’sir, G‘arb, Sharq, “Beshlik”, masal, konkretlashuv.

О НОВЕЛЛИСТИЧЕСКИХ СЮЖЕТАХ ЭПОСА НАВОИ «САДДИ ИСКАНДАРИ»

Шодия Отаназарова – Ургенчский государственный университет,
студентка филологического факультета,
Государство имени Алишера Навои
стипендиат

Аннотация. В статье рассматриваются особенности жанра романа на примере литературы Востока. В частности, всесторонний анализ новеллистических аспектов рассказов, приведенный в «Пятерке» («Хамса») Алишера Навои, позволяет выдвинуть мысль о том, что восточный рассказ лежит у истоков западноевропейского короткометражного повествования. история.

Ключевые слова: новелла, повесть, взаимовлияние, Запад, Восток, «Пятерка», притча, конкретизация.

ABOUT THE NOVELISTIC STORIES IN NAVOI'S "SADDI ISKANDARI" EPIC

Shodiya Otanazarova - Urganch state university,

student of the Faculty of Philology,

State named after Alisher Navoi

scholarship holder

Annotation. The article examines the features of the novel genre using the example of the literature of the East. In particular, a comprehensive analysis of the analysis of the novelistic aspects of the stories given in the "Five" ("Khamsa") by Alisher Navoi allows us to put forward the idea that the Eastern story is at the origins of the Western European short story.

Key words: short story, story, mutual influence, West, East, "Five", parable, specify.

G'arb adabiyotida, uyg'onish davrida yuzaga kelgan novella janrining nazariyasiga oid ayrim xususiyatlar Alisher Navoiy hikoyatlarida mujassam ekanligi mazkur janrning tarixini faqat Italiya va Olmon adabiyotidan emas, balki Sharq adabiyotida, jumladan o'zbek adabiyotining shoh asarlaridan biri "Xamsa" dostonidan ham izlashga to'g'ri keladi. O'zbek hikoyalari tadqiqotchisi N.Vladimirova Alisher Navoiy "Xamsa"ga kiritgan hikoyatlarining kompozitsiyasini "Dekameron" ga o'xshash jihatlarini aytadi: "Navoiy she'riyatning shubhasiz ustunligini e'tirof etsa-da, o'zining "Xamsa" si poetik materialiga yagona mazmuniy sterjen bilan bog'liq hikoyatlarni kiritgan.

Aytish kerakki, izoh sarlavhali Navoiy hikoyatlari mashhur Florensiyalik Bokachcho novellalari arxitekturasini eslatadi. Uning ustiga nafaqat sarlavhalar

balki xotimalari - hikoyaning mazmunini yakunlovchi va ba’zida pand-nasihat otkenkasiga ega bo’lgan xotimasi ham o’xshaydi . Mana shu qurilishning o’zi o’z ildizlari bilan xalq og’zaki ijodi an’analariga borib taqaladi va shu bilan birga realistik tendensiyalar rivojlanishi yo’lidan borayotgan badiiy ijoddagi yangi izlanishlar bilan ham chambarchas aloqadorlik kasb etib bormoqda”,¹ deb yozsa, N.Komilov “Tafakkur karvonlari” asarida : “G’arbning dastlabki yozma obidalaridan hisoblangan “Dekameron” sharq xalqlari orasida , jumladan, Markaziy Osiyoda ham keng tarqalgan “Kalila va Dimna” , “Ming bir kecha” kabi hikoyatlar va afsonalar ta’sirida bunyod etilgandir”² deb yozadi. Ko’rinadiki , Navoiyni aynan Bokochcho usulidan foydalangan deyish o’zini oqlamaydi . Navoiy uni o’qimagan ham degan taxmin ko’proq tarozi bosadi. Shoirning “Xamsa” dostonlaridagi hikoyatlar syujetida uyg’onish davri novellalariga xos xususiyatlar mavjudligini ifodalashida N. Vladimirova qarashlarida mafkuraviy yondoshuvlar ta’siri bor deb o’ylaymiz .

Mumtoz adabiyotda hikoyatlar asosan didaktik yo’nalishda bo’lib , axloq – odob, pand – nasihat, o’g’itlardan iborat bo’lgan . Ammo ba’zan shunday hikoyatlar ham yozilganki , ularda yuqoridagi xususiyatlar bo’lishi bilan bir qatorda tamoman yangicha fikrlar o’rtaga tashlangan. Mavjud tuzum, podsholik tartiboti haqida isyonkorona xulosalar berilgan. Jang-u jadallarda ko’z ko’rib quloq eshitmagan tadbirlar qo’llangan. Haq gapni aytishdan tap tortishmagan. Bunday hikoyatlar kishilarga pand-nasihat berib o’tirmaydi. Ularning ko’ngil ko’zlarini ochadi, qalbini junbushga keltiradi . Halol pokiza yashash kerakligini o’rgatadi . Shunday hikoyatlar turiga “Ikki vafoli yor”, “Mashriqda ganj topgan kishi” va shu hikoyadagi fikrni go’yo tasdiqlash maqsadida keltirilgan Iskandarning bo’sh qo’l bilan ketganligi haqidagi hikoyatlar o’zining novelistik jihatlari bilan alohida ajralib turadi .

¹ N.Komilov. Tafakkur karvonlari. T., Sharq, 2011. 125-B.

² A.Navoiy. Saddi Iskandariy. T., G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. 322-bet.

Masalan, Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida Yevropada uygʻonish davri novellalari koʻtargan muammolarni , ular qoʻllagan betakror uslub va usullarni oʻzida namoyon qila oladigan, hech bir jihati bilan Bokachcho qahramonlari faolliklaridan qolishmaydigan hikoyatlar mavjud : “Podsho Ardasher boshqa bir shoh Ardavon bilan yovlashib qolib , urush xavfi tugʻiladi. Ardavonning kuchi koʻpligi , Ardasherni uni daf etishga qurbi yetmasligi ayon boʻlib qoladi .Taslim boʻlay desa oriyati yoʻl qoʻymaydi. Jang maydoniga chiqay desa oʻz zaifligidan tashvishda .

Yarashaylik deb yuborgan taklifini Ardavon qabul qilmaydi. Ardasher qoʻshini ichida bir sotqin boʻlib , uning yashirincha qiladigan ishlarini dushmanga yetkazib turardi . Ardasher oʻylay-oʻylay bir tadbir topadi . Barcha saroy ayʻonlarini oldiga yigʻib :

-Hech kim qochishni ixtiyor etmasin, dushman shavkatidan vahimaga tushmasin . Hozirgina menga Haq taolodan inoyat etishdi , shuning uchun ham koʻngil sirlarimni sizga ochay , lekin zinhor boshqalarga oshkor qilmagaysiz !-dedi. Dushman tomondagi bir qancha pahlavonlar Ardavonga nisbatan qora niyatda ekanlar . Yuborgan xatlariga koʻra urush boshlangach, qilgan zulmi evaziga Ardavonning boshini menga olib kelib berisharmish .

Anjuman ishtirokchilari ichida haligi sotqin ham bor edi. Maxfiy suhbat mazmunini tezda Ardavonga yozib joʻnatdi . Zoʻr dushman bu soʻzni eshitgach yuragiga qattiq qoʻrquv tushib, ne qilarini bilmay oʻz ixtiyori bilan yarashishga rozilik berdi, sulh tuzildi . Ushbu hikoyatda Ardasherning donoligi xalqning ham qon toʻkilishidan , ham dushman tomonidan talanishdan saqlab qoldi .

Novellaning mohiyatini janr sifatida aniqlashga urinishlar koʻp boʻlgan . Nazariyotchilar koʻpincha Gyotening fikrini keltiradilar . “Nemis olimlarining suhbatlarida personajlardan biri voqeaning qiziqarliligi uning yangiligida , odatda faqat yangi narsagina muhim tuyiladi , zero boshqa narsalarga bogʻliq boʻlmagan holatda kishini hayron qoldiradi va hissiyotlarimizni yengil qitiqlab ongimizni

tinch qo‘yib , tasavvurimizni bir lahza harakatga keltiradi”, deb aytadi. Bayon etilgan fikrlar novellaning asosiy belgisi – uning yangilik ifoda etishiga ishora qilyapti. Albatta, Ardasher tutgan yo‘l , qabul qilgan qaror yangilik , u shunday qarorki , hali hech kim uni qo‘llamagan , hech bir kitobda qayd etilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Komilov. Tafakkur karvonlari.T., Sharq, 2011. 125-B.
2. A.Navoiy. Saddi Iskandariy. T., G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. 322-bet.